www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

BOSHLANG`ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Raxmonova Mavluda Suvon qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi" 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy kompetensiya tushunchalarining uyg‘un va farqli jihatlari, kontekstual tahlili, kreativ kompetensiyani shakllantirish modeli va ijtimoiylashuv jarayonidagi qayta aloqa, shuningdek o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish natijasida yuzaga keluvchi samaradorlik bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Kompetensiya, , model, innovatsiya, mantiqiy fikrlash, xalqaro tajriba, kreativlik, ijtimoiylashuv jarayoni.

KIRISH: Jahon pedagogik amaliyotida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, fan asoslarini ijodiy o‘zlashtirish va mustaqil bilish faoliyatini rag‘batlantirish omili sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda ijtimoiy rivojlantirishning innovatsion-didaktik tizimini ishlab chiqish, kompetensiyaviy yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga o‘quvchilarning kelgusi o‘quv jarayonida namunali faoliyat olib borishi, kasbiy va kundalik faoliyatida muvaffaqiyatli natijalarga erishishi, jamiyat ravnaqi yo‘lida harakatlanishi, o‘zining har jihatdan rivojlanishida ularning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni egallashi – muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyo ta’lim tizimlarining xalqarolashuvi milliy ta’lim tizimi oldiga yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, hozirgi kunda maktablarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda dunyoga yaxlit, o‘zaro aloqador bo‘lgan birlik sifatida qarash, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko‘ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Ta’lim mazmunida o‘quvchilarning taqdim etilayotgan bilimlar asosida ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashi hamda o‘zining kreativ sifatlarini rivojlantirib borishi o‘zgaruvchan jamiyatning asosiy ehtiyojlaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”[1], degan g‘oyani ilgari surib, buning asosida maktab ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishini ta’kidlab o‘tgan edi. Ushbu islohotlar doirasida “bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish”[2] asosiy masalalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu asosda maktab ta’limini rahbar va pedagog-xodimlari, o‘quvchi va bitiruvchilariga qo‘yilgan talablar ortmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash va bu yo‘nalishda ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, voqelik va jarayonlarga nisbatan kreativ fikrlashlariga imkoniyat yaratish, turli xil ijtimoiy muhitda o‘z fikri va qarashlarini bayon etishga, harakatlarini boshqara olishga tayyorlash ta’lim jarayonining muhim vazifalari sifatida qaralmoqda.

Jamiyat bugungi innovatsion davrda yuksak bilim olgan o‘quvchi-yoshlarning kreativ g‘oyalaridan manfaatdor bo‘lib, ularning o‘z kreativ kompetensiyasini ijtimoiy muhitda namoyon etishi ushbu jamiyat istiqboli uchun yana bir imkoniyat hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - https://president.uz/oz/lists/view/4057
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - https://president.uz/oz/lists/view/4057

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

ADABIYOTLAR SHARHI:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda o‘zbek –“Pedagogika” fani tarixida ilk bor “Tarbiya” yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6 iyuldagi 422-sonli –“Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichmabosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan –“Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Kontsepsiyasi” tasdiqlandi. Qarorga binoan “Tarbiya” fani amaldagi quyidagi fanlarni qo‘shish hisobiga tashkil etildi:[3]

1)boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan Odobnoma va Vatan tuyg‘usi o‘quv fanlari;

2)yuqori sinflarda o‘qitiladigan Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslar hamda Dunyo dinlari tarixi o‘quv fanlari.

Maktab yoshdagi o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy va didaktik manbalar tarbiya ishida muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL: Shaxs jamiyatni harakatga keltiradigan kuch sanaladi. Zero, shaxsning ichki imkoniyati, qobiliyati, faolligi jamiyatda kechadigan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning asosini belgilaydi. Shu sababli kishilik taraqqiyoti tarixida shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelingan.

Asrlar davomida shaxsni har tomonlama shakllantirishda uning ijtimoiy , jismoniy, intellektual hamda irodaviy sifatlarga ega bo‘lishi muhim deb hisoblangan. Binobarin, ana shu sifatlar shaxsning jismonan sog‘lom, aqliy jihatdan yetuk va irodali bo‘lib kamol topishiga imkon bergan. Har tomonlama uyg‘un rivojlana olgan shaxsgina doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib boradi, jamiyatning istiqbolli taraqqiy etishiga ham o‘z hissasini qushadi. O‘zbekistonda ham xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatning inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlar, xususan, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, jismoniy madaniyat hamda san’atshunoslik sohalari oldiga muhim, jumladan, maktab ta’lim, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta’lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish vazifalarini qo‘ymoqda.

So‘nggi paytlarda maktab ta’limining ustuvor yo‘nalishlari sezilarli darajada o‘zgardi, o‘quvchining shaxsini rivojlantirish, uning ko‘nikmalari, ko‘nikmalarini shakllantirish, shu bilan birga yuqori bilim darajasiga erishish maqsadlari birinchi o‘ringa chiqdi. Butun tarbiya va ta’lim salohiyati maktab yoshdagi o‘quvchilarning tengdoshlari, kattalar ota-onalari va o‘qituvchilari bilan muloqoti va o‘zaro munosabatiga asoslanadi, bunda axloqiy me’yorlar shakllanadi va shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga asoslanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxslararo munosabatlarning ko‘plab muhim shaxsiy xususiyatlar, holatlar va shaxsiy xususiyatlarning shakllanishiga ta’siri, inson hayoti davomida sodir bo‘ladigan va yosh xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayonlar. Muammo: o‘quvchining tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish jarayoni maktab yoshdagi o‘quvchining shaxsiyatini

[3] O. Jabborova. BOSHLANG’ICH TA’LIMDA “TARBIYA” FANINI O’QITISH METODIKASI. Chirchiq-2021

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

shakllantirishga qanday ta’sir qiladi? Bizning tadqiqotimiz mavzusi - o‘quvchining tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish jarayonining maktab yoshdagi o‘quvchining shaxsiyatini shakllantirishga ta’siri.

NATIJALAR:O‘quvchilar maktabda rivojlanishga yo‘naltirilgan dasturlardagi tizimli rejalashtirilgan mashg`ulotlar yordamida til, aql, sensomotorika va ijtimoiy qobiliyatlar mustahkamlanadi. Va bu yerda gap faqat maktabning sharoitlari o‘quvchiga yaxshi tanishligi va bu uning yangi ta’lim faoliyatiga moslashish jarayoni haqida emas. Va hattoki qator obyektiv sabablar tufayli ya’ni ko‘plab maktablarning uzoqda joylashganligi, qo‘shimcha sinflar va o‘qituvchilar yetishmasligi sababli sinflarning optimal bandligini oshirib yuborilishi, xonalar yetarli emasligi va hokazolardir. Buning asosiy sababi shundaki, maktabning hayot ritmi, o‘quvchilarning kattalar bilan va bir-biri bilan muloqot uslubi maktab yoshdagi o‘quvchi psixikasining rivojlanish darajasiga ko‘proq mos keladi. Beqarorlik, yangi sharoit va munosabatlarga moslashishdagi qiyinchiliklar tufayli 7 yoshli o‘quvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy munosabatga muhtoj bo‘lib, rasmiylashtirilgan maktab sharoitida bu ehtiyoj qondirilmaydi.

Psixologlar va o‘qituvchilar 7 yoshidan boshlab maktabda o‘qishning ko‘plab ijobiy va salbiy tomonlarini keltirib o‘tishadi. Ushbu yoshda maktabga borishga bo‘lgan eng jiddiy e’tirozlarni D.B.Elkonin ilgari surgan. Uning yozishicha, o‘quvchilar rivojlanishining keyingi, yuqori bosqichiga o‘tish ichki qarama-qarshiliklarni namoyon qiladi. Agar bu qarama-qarshiliklar pishib yetilgunga qadar mukammal bo‘lsa-obyektiv omillarni hisobga olmasdan subyektiv ravishda majburlansa-demak, o‘quvchi shaxsi shakllanishi sezilarli darajada zarar ko‘radi. Maktab yoshdagi o‘quvchilikni bir yilga qisqartirish hozirgi degeneratsiya rivojlanish jarayonini buzishi va foyda keltirmasligi mumkin.

D.B.Elkonin 6 yoshdan boshlab maktabda o‘qishni tashkil etish o‘rniga, o‘quvchilar bog‘chalariga tayyorgarlik guruhlarini kengaytirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi, chunki o‘quvchilarni maktabga tayyorlash qulayroq, negaki o‘quvchilar maktabda yaxshiroq, ular yanada to‘liq, xilma-xil hayot tarzini kechirishadi va yanada quvnoq va sog‘lom ko‘rinishga ega bo‘lishadi. D. B. Elkonin rahbarligida qiziqarli psixologik fenomen aniqlangan.

XULOSA VA MUNOZARA: Xulosa qilib aytganda maktabda ta’lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik o‘quvchi shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Shu o‘rinda maktabgacha ta’limi tashkiloti va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari orqali ta’minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta’lim tizimi va uning tarkibiy va g‘oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Maktab ta’limining maqsad va vazifalari tarbiyaning o‘quvchilar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktab ta’limi tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. T.: 2016 y, 29-dekabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - https://president.uz/oz/lists/view/4057

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - https://president.uz/oz/lists/view/4057

4.O. Jabborova. BOSHLANG’ICH TA’LIMDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASI. Chirchiq-2021

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

5.Sh.T. Xasanova. “O‘quvchilarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” o‘quv qo‘llanma
6.Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – 190 b.